

"Fan va turmush" jurnali



Jurnal 2006 yil 6 dekabrda O'zbekiston Respublikasi matbuot va axborot agentligida ro'yxatdan o'tkazildi. Ro'yxatga olish to'g'risidagi guvohnomasi 0022. (ISSN 0134-4560)

"Fan va turmush" jurnali - "O'zbekiston ilm-fani va hayoti" - eng uzoq vaqtdan beri mavjud nashrlardan biri - 90 yil. "Fan va turmush" ning o'zbek tilidagi birinchi soni 1933 yilda nashr etildi.

Maqsad va vazifalar: O'zbekiston Respublikasida keng ko'lamdagi o'quvchilar orasida jahon va mahalliy ilm-fan va texnika yutuqlarini ommalashtirish. 2023-yildan boshlab o'quvchilarni ko'paytirish maqsadida o'zbek, rus va ingliz tillarida chiqa boshladi.

Bosh muharrir



Hakimov Akbar Abdullayevich

Akademik, San'atshunos fanlari doktori

FAN VA TURMUSH JURNALINING 90 YILLIGI!

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan mamlakatimizda va xalqaro miqyosida keng tarqalangan "Fan va turmush" ilmiy-ommabop jurnali 1933-yildan boshlab chop etilmoqda, jurnal 2023-yilda

ilm-fan sohasidagi ma’rifiy faoliyatining 90 yilligini nishonladi. Mazkur jurnal bilan mamlakatimizning ko’plab akademik va ilmiy muassasalarning xodimlari faol hamkorlik qilib o’zlarining ilmiy-ommaviy maqolalarini turli fan yo’nalishlari bo’yicha chop etib o’zlarining yangi ilmiy natijalari va qo’lga kiritilgan ilmiy yutuqlari bilan keng jamoatchilik hamda mamlakatimiz yoshlarini qiziqtirib kelmoqda. Keyingi yillarda “Fan va turmush” jurnalining so’nggi sonlari yuqori sifatda tasvirlangan yorqin rasmlar bilan nashr etila boshladi, shuningdek, ularda maxsus tematik nashrlar ham yoritilmoqda.

Turli davrlarda Fan va turmush jurnalining bosh muharriri sifatida O’zbekiston Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti akademik T.N.Qori-Niyazov, O’zbekiston FA vitse-prezidenti akademik I.M.Muminov, Lenin mukofoti laureati akademik Y.X.Turakulov, taniqli akademik-iqtisodiyotchi M.Sh.Sharifxo’jayev, shuningdek, O’zbekistonning boshqa nufuzli olimlari, 2002 yildan 2022 yilgacha bo’lgan davrda esa – O’zR FA Mirzo Ulugbek nomidagi Astronomiya instituti direktori, akademik Sh.A.Egamberdiyev ish yuritib kelishgan. So’nggi yillarda Fan va turmush jurnali ushbu institut qoshida katta tirajda chop etilgan.

2023-yil fevral oyida Fan va turmush jurnalining bosh muharriri etib O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va O’zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, san’atshunos-olim, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilm-fan targ’iboti markazi direktori Akbar Abdullayevich Hakimov tayinlandi. 2023-yildan boshlab Fan va turmush jurnali ushbu Markaz qoshida uch tilda – o’zbek, rus va ingliz tillarida, yiliga 4 ta son chop etila boshladi. Ushbu jurnalda mamlakatimiz va jahon ilm-fan va texnika yangiliklari, yurtimiz olimlarning eng muhim ilmiy natijalari va innovatsion ishlanmalari yoritilmoqda, shuningdek, taniqli olimlar bilan suhbatlar ham jurnaldan joy olmoqda. Fan va turmush jurnalida O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademiklari, boshqa taniqli olimlar va jamoatchilik vakillari o’zining ilmiy-ommaviy maqolalari bilan faol ishtirok etmoqda. O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilm-fan targ’iboti markazi Fan va turmush jurnalini yaratilganining 90 yilligi munosabati bilan muborakbot etadi va O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va oliy o’quv yurtlari xodimlarini o’zining qiziqarli ilmiy-ommabop maqolalari va mahalliy va jahon ilm-fanining dolzarb muammolari, ilm-fan tarixi, yangi ilmiy kashfiyotlar va ularning amaliy faoliyati haqidagi ma’ruzalari bilan “Fan va turmush” jurnali bilan hamkorlikka taklif etadi.

Manzil: 100047, O'zbekiston. Toshkent shahri. Ya. Gulomov ko'chasi 70

Telefon: (+998-71) 233-50-33; 233-07-05;

Faks: (+998-71) 234-48-67

E-mail: fvat@academy.uz

Sayt: www.fvat.uz

Arxiv

[Fan va turmush 2023-yil 1-son](#)

[Fan va turmush 2023-yil 2-son](#)

[Fan va turmush 2023-yil 3-son](#)

[Fan va turmush 2023-yil 4-son](#)

[Fan va turmush 2024-yil 1-son](#)

[Fan va turmush 2024-yil 2-son](#)

Maqolalarni qabul qilish qoidalari